

**“O‘zIQMK” AJ Kuzatuv
kengashining
2024-yil 1-mart sanasidagi
2-sonli majlisi qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

**“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
“KUZATUV KENGASHI QOSHIDAGI
AUDIT QO‘MITASI TO‘G‘RISIDAGI” NIZOM**

Toshkent - 2024 y.

MUNDARIJA

I.	Umumiy qoidalar	3
II.	Qo'mitaning maqsadlari va vazifalari	3
III.	Qo'mitaning vakolatlari	4
IV.	Qo'mitani tashkil etish va uning a`zolari vakolatlarini bekor qilish.....	7
V.	Qo'mitaning huquqlari va majburiyatlari.....	8
VI.	Qo'mita ishini tashkillashtirish.....	10
VII.	Qo'mita a'zolariga haq to'lash.....	12
VIII.	Qo'mitaning Kuzatuv kengashiga hisobdorligi.....	12
IX.	Qo'mitaning ijroiya organlari va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabati.....	13
X.	Yakuniy qoidalar	13

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” Aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom (bundan buyon matnda – “Nizom”) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yil 10 fevraldagi “Ipoteka qayta moliyalash tashkilotlari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risida”gi 3219-sonli Nizomiga, “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” Aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – “Jamiyat”) Ustaviga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha Komissiyaning 2015 yil 31 dekabrda yig‘ilishining 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga, Jamiyat Kuzatuv kengashi (bundan buyon matnda – “Kuzatuv kengashi”) to‘g‘risidagi Nizomga, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va ichki audit sohasidagi boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Jamiyat Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasi (bundan buyon matnda – “Qo‘mita”) faoliyatini tartibga soladi.

1.2. Mazkur Nizom Qo‘mitaning huquqiy maqomi, maqsad va vazifalarini, vakolatini, tuzilishi va tarkibini, uni tashkil etish va vakolatlarini bekor qilish tartibini, uning a‘zolari huquqlari va majburiyatlarini, uning ishini tashkillashtirish va qarorlar qabul qilish tartibini, shuningdek Kuzatuv kengashining boshqa qo‘mitalari va Jamiyat Ijroiya organi bilan o‘zaro munosabatlarini belgilaydi.

1.3. Qo‘mita Kuzatuv kengashining qaroriga asosan Kuzatuv kengashining doimiy faoliyat yurituvchi ishchi organi shaklida tashkil etiladi. Qo‘mita o‘z faoliyatida Kuzatuv kengashiga to‘liq hisobdordir. Qo‘mita yig‘ilishlari chorakda kamida bir marta o‘tkazilishi kerak. Zarur hollarda, navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin. Qo‘mita muntazam ravishda amalga oshirilgan ishlar va Qo‘mita yig‘ilishlarida qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida Kuzatuv kengashiga hisobot berishi kerak.

1.4. Qo‘mita faoliyati Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita byudjeti doirasida Jamiyat mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Qo‘mita o‘z vakolatlari doirasida Kuzatuv kengashining boshqa qo‘mitalari, Ijroiya organi va Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

1.5. Qo‘mita ichki nazorat tizimini baholash, monitoringini o‘tkazish va ta‘minlab turishni tashkillashtirish, shuningdek mazkur Nizom va Kuzatuv kengashi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida Jamiyatda moliyaviy nazorat tizimini nazorat qilishda Kuzatuv kengashiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etiladi. Qo‘mita tarkibiga faqatgina Kuzatuv kengashi a‘zolari kiradi.

1.6. Qo‘mita Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarida ko‘rib chiqiladigan Jamiyatning tegishli ichki nazorat tizimini va moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilinishini ta‘minlash masalalarni dastlab ko‘rib chiqadi. Qo‘mitaning qarorlari Kuzatuv kengashi uchun tavsiya xarakteriga ega.

II. QO‘MITA MAQSADLARI VA VAZIFALARI

2.1. Jamiyat nazorat tizimlarining adekvatligi va moliyaviy axborotlari ishonchligini ta‘minlashda Kuzatuv kengashi nazorat funksiyalarini samarali bajarishiga ko‘maklashish Qo‘mitaning asosiy maqsadidir.

2.2. Qo‘mita vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlari, jumladan byudjetlash va xodimlar bilan bog'liq masalalarni umumiy samaradorligini baholash;

Jamiyatning ichki audit tizimi va tartiblarining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash;

Qo'mitaning ish rejasiga asosan ichki audit xizmati hisobotlarini o'rganish va o'rganish natijalarini Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (bundan buyon matnda – MHXS) talablariga muvofiq tuzildigan yillik hisobot, yillik buxgalteriya hisobotlari va moliyaviy hisobotlar tayyorlanishini nazorat qilish hamda ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi, shaffofligi va to'liqligini ta'minlash;

ichki auditor tomonidan tashqi auditor uchun tayyorlangan texnik vazifalarni ko'rib chiqish, tashqi auditorning takliflarini baholash, Kuzatuv kengashiga tashqi auditorni tanlash bo'yicha tavsiyalar tayyorlash va tashqi auditor faoliyatining samaradorligini baholash;

Jamiyat Ijroiya organi tomonidan ichki va tashqi auditni o'tkazish jarayonida aniqlangan muammolar va kamchiliklar bartaraf etilishini, shuningdek auditorlar tavsiyalarining bajarilishini nazorat qilish;

Jamiyatning Korporativ boshqaruv kodeksi, qonunlar, me'yoriy va ichki hujjatlar, shu jumladan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash sohasidagi talablarga rioya etilishini nazorat qilish.

III. QO'MITA VAKOLATLARI

3.1. Qo'mita vakolatlariga quyidagilar kiradi:

3.1.1. Ichki nazorat va audit sohasida:

Jamiyatda ichki nazorat tizimini tahlili hamda ichki nazorat usulublari va tartiblarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Ijroiya organi tomonidan Jamiyat Ichki audit xizmati, tashqi auditorlar, nazorat va huquqni himoya qilish organlari tomonidan aniqlangan qoida buzilishlarni bartaraf etish yuzasidan, kelgusida shunga o'xshash hodisalarning oldini olish maqsadida, bergan tavsiyalarining bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish;

qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishning nazorat tizimlari samaradorligini tahlil qilish, shuningdek Jamiyatning moliyaviy ko'rsatkichlariga moddiy jihatdan ta'sir etishi yoki Jamiyat biznes faolligida jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va me'yoriy masalalarni ko'rib chiqish;

Ichki audit xizmatining kelgusi yil uchun ish rejasini dastlabki ko'rib chiqish va Ichki audit xizmati ish rejasiga asosiy xavf sohalari bilan bog'liq masalalarni kiritish haqida Kuzatuv kengashiga takliflar tayyorlash;

Ichki audit xizmati yillik xarajatlar smetasini dastlabki ko'rib chiqish va uni Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun taqdim qilish;

Ichki audit xizmati xarajatlar smetasiga o'zgartishlar kiritish bo'yicha takliflarni, hamda Ichki audit xizmati xodimlarini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish takliflarini ko'rib chiqish;

Ichki audit xizmatining tashkiliy tuzilmasi va faoliyat samaradorligini tahlil qilish;

Kuzatuv kengashiga uning faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalarni taqdim etish;

Ichki audit xizmati rahbari lavozimiga nomzodlarni ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashiga ushbu lavozimga tasdiqlash uchun nomzodlik tavsiyalarni taqdim qilish;

Ichki audit xizmatining mustaqilligini hamda Ichki audit xizmati faoliyatiga, shuningdek tekshiruvlar mazmuni va hajmlariga Ijroiya organi va Jamiyatning boshqa bo'linmalari rahbarlari tomonidan aralashuvlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash;

Ichki audit xizmati rahbari bilan quyidagilarni ko'rib chiqish uchun kamida chorakda bir marta muntazam yopiq uchrashuvlarni o'tkazish:

- a) operatsion va axborot nazorati tizimlari yetarliligini baholashga tegishli faoliyat;
- b) auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish vaqtida aniqlangan jiddiy kamchiliklar, taqdim qilinadigan tavsiyalar va ularga Jamiyat rahbariyatining reaksiyalari;
- c) tekshiruvlar, tadqiqotlar, shuningdek Qo'mita yoki ichki auditorning fikricha, yopiq muhokamani talab qiladigan boshqa masalalar;
- d) tasdiqlangan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish rejasiga har qanday zarur o'zgartishlar ko'rib chiqish.

Jamiyat faoliyatida aniqlangan qonun buzilishlar to'g'risidagi Ichki audit xizmatining xabarlarini va Ichki audit xizmati tomonidan taqdim qilingan tavsiyalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, shuningdek Kuzatuv kengashiga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish choralari haqidagi tavsiyalarni taqdim qilish;

Ichki audit xizmatining yilning har choragidagi hisobotlarini dastlabki tinglash va ularni Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

Qo'mita faoliyatiga tegishli va tasdiqlanishi Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiruvchi Jamiyatning ichki hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga doir takliflarni ko'rib chiqish.

3.1.2. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash sohasida:

Jamiyat Ijroiya organiga Jamiyatning yillik moliyaviy hisobotlarini tashkillashtirish va tayyorlashda hamda oshkor qilinadigan moliyaviy axborotning ichonchiligi, shaffofligi va to'liqligini ta'minlashda ko'maklashish;

Kuzatuv kengashiga tegishli xulosa taqdim qilgan holda oraliq va yillik moliyaviy hisobotlarni, uning tashqi auditi natijalarini tahlil qilish;

Kuzatuv kengashiga tegishli xulosa taqdim qilingan holda, Jamiyat tomonidan oshkor qilinadigan axborot tuzilishi, oshkor qilish tartibi, oshkor qilish muddatlarining qonun hujjatlari normalari va talablariga muvofiqligini baholash;

Kuzatuv kengashiga tegishli xulosa taqdim qilingan holda, buxgalteriya hisobi va hisobotiga tegishli muhim masalalarni, jumladan me'yoriy hujjatlar va standartlarni ko'rib chiqish, ularning moliyaviy hisobotlarga ta'sir etish mumkin bo'lgan darajasini baholash;

Kuzatuv kengashiga tegishli xulosa taqdim qilingan holda, Ijroiya organi va Jamiyat bo'linmalari tomonidan Jamiyat qonunlarga va boshqa me'yoriy hujjatlarga, MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobot tayyorlashda), moliyaviy hisobotlarga qo'yilgan talablarga rioya etishini nazorat qilish uchun qo'llaniladigan tartibotlarini tahlil qilish;

Jamiyatning moliyaviy hisobotlariga ta qonun hujjatlari talablarining bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, Jamiyat Ijroiya organidan va tarkibiy bo'linmalar rahbarlaridan olingan qonun hujjatlariga rioya qilish ma'lumotlarni tahlil qilish;

buxgalteriya hisobi va hisobotiga tegishli muhim masalalarni, jumladan tartibga soluvchi organlar ko'rsatmalarida aks ettirilgan masalalarni ko'rib chiqish, shuningdek

ularning Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini tuzishga ta'siri to'g'risidagi fikrlarni shakllantirish;

Yillik va oraliq moliyaviy hisobotlar, Jamiyat aksiyadorlari uchun tayorlangan yillik hisobotlardagi ma'lumotlarning ob'ektivligini Kuzatuv kengashiga taqdim etishdan avval baholash. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi kerak:

a) buxgalteriya hisobi va buxgalteriya hisobotlari qoidalaridagi har qanday o'zgarishlar;

b) auditorlar tomonidan aniqlangan har qanday ahamiyatli o'zgarishlar yoki farqlar;

c) buxgalteriya va boshqa moliyaviy standartlarga muvofiqlik.

oshkor qilinuvchi, shu jumladan moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishda, axborotning ishonchliligini baholash.

3.1.3. Tashqi auditorlik tashkiloti bilan o'zaro munosabatlar sohasida:

Jamiyat majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tanlovini o'tkazishga tayyorgarlik va uning o'tkazilishini tahlil qilish hamda auditorlik xizmatlari eng ko'p haq miqdorini belgilash;

auditorlik tashkiloti nomzodi, shuningdek auditorlik xizmatlari eng ko'p haq miqdorini, uning xizmatlari turi va hajmi, shu jumladan turdosh xizmatlar bo'yicha tavsiyalar tayyorlash va Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

tashqi auditorlardan audit ish rejasini olish;

Jamiyatdagi vaziyat va me'yoriy huquqiy aktlar talablarini o'zgarishini hisobga olingan holda, joriy yil auditorlik tekshiruvining hajmi va audit o'tkazishga yondashuvni Jamiyat auditorlik tashkiloti bilan o'zaro kelishish;

auditorlik tekshiruvini o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek tashqi auditorlik tashkilotining ob'ektivlik va mustaqillik darajalarini baholash. Mazkur vakolatlarni amalga oshirishda Qo'mita tashqi auditorni baholash erkinligi va mustaqilligini cheklashga haqli emas hamda Kuzatuv kengashiga Jamiyat faoliyatida aniqlangan muammolar to'g'risida to'liq va ob'ektiv axborot yetkazilishiga ko'maklashishi kerak;

tashqi auditor va Jamiyat rahbariyati o'rtasidagi muhim kelishmovchiliklarni, shuningdek auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda yuzaga kelgan har qanday qiyinchiliklarni, shu jumladan ishlar ko'lemi yoki zarur axborotdan foydalanish imkonini cheklash holatlarini muhokama qilish;

yiliga kamida bir marta tashqi auditor bilan quyidagi masalarni ko'rib chiqish uchun uchrashuvlar o'tkazish:

a) yillik moliya hisoboti tarkibi va moliyaviy hisobotlar bo'yicha tashqi auditor xulosasi;

b) Jamiyat faoliyatiga tegishli hisob masalalari;

c) ichki moliyaviy siyosat, buxgalteriya hisobining nazorat tizimi va jarayonlari adekvatligi;

d) audit vaqtida aniqlangan jiddiy kamchiliklar, bildirilgan tavsiyalar va ularga Jamiyat rahbariyatining reaksiyalari;

e) Qo'mita yoki tashqi auditorning fikricha yopiq muhokamani talab qiladigan har qanday boshqa masalalar.

Zarur hollarda Kuzatuv kengashiga Jamiyat tashqi auditorlik tashkilotini almashtirish takliflarni taqdim qilish;

auditorlik xulosasini, shu jumladan rahbariyat xatini baholash va Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish doirasida aksiyadorlarga ko'rib chiqish uchun taqdim qilishga qadar Kuzatuv kengashiga taqdim qilish.

Kuzatuv kengashi qaroriga asosan Qo'mitaga boshqa funksiyalar ham yuklatilishi mumkin.

IV. QO'MITANI TASHKIL ETISH VA A'ZOLARINING VAKOLATLARINI BEKOR QILISH

4.1. Qo'mitaning shaxsiy tarkibi Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi va Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibidan saylanadigan uch kishidan kam bo'lmasligi kerak.

4.2. Qo'mita raisi va a'zolari Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi bilan Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Kuzatuv kengashi raisi Qo'mita raisi bo'lishi mumkin emas. Qo'mita tarkibiga kiruvchi Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalari a'zosi bo'ib tayinlanishlari mumkin emas.

4.3. Qo'mita raisi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi kerak. Jamiyat bilan moddiy munosabatlarga ega bo'lmagan va uning aksiyadori bo'lmagan a'zo Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi hisoblanadi.

Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nggi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijosi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

4.4. Qo'mita raisining Nizomning 4.3-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu haqda 2 (ikki) ish kuni ichida xabardor qilishi shart.

4.5. Hozirda yoki Kuzatuv kengashiga saylovdan oldin uch yil va undan kamroq muddatda Jamiyat auditini amalga oshirgan yoki auditga tegishli xizmatlar ko'rsatadigan

auditorlik tashkilotining auditori bo'lgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi Qo'mita tarkibiga saylanishi mumkin emas.

4.6. Qo'mita a'zolari oliy ma'lumotli bo'lishlari hamda Qo'mita vazifalari va faoliyatiga muvofiq ish stajiga ega bo'lishlari kerak. Qo'mita a'zolaridan kamida bir nafari moliyaviy hisobotlarni tuzish malakasiga ega bo'lishi, buxgalteriya hisobi yoki auditi bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. Qo'mita a'zolaridan har biri Jamiyat faoliyatining spetsifikasini, kredit tashkiloti boshqaruvining asosiy masalalarini yaxshi tushunishi, amaldagi mehnat va korporativ qonun hujjatlari sohasida bilimlarga ega bo'lishi kerak.

4.7. Qo'mita a'zolarini saylash to'g'risida qaror Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Qo'mita a'zolari cheklanmagan marta qayta saylanishlari mumkin. Qo'mita a'zolarining Kuzatuv kengashi a'zolari sifatidagi vakolatlari to'xtatilgan paytdan e'tiboran ularning vakolatlari to'xtatiladi. Kuzatuv kengashining qaroriga asosan Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolari vakolatlari muddatdan oldin bekor qilinishi mumkin.

4.8. Qo'mita a'zosi o'z vakolatlaridan voz kechish sanasigacha 1 oy oldin Kuzatuv kengashi raisini va Qo'mita raisini tegishli yozma ariza yuborish orqali xabardor qilgan holda o'z vakolatlaridan voz kechishga haqli.

4.9. Qo'mita a'zosining vakolatlari mazkur Nizomning 4.8-bandiga muvofiq bekor qilingan holatda, Kuzatuv kengashi eng yaqin oradagi yig'ilishda, biroq Kuzatuv kengashi vakolatlardan voz kechish to'g'risida yozma ariza olgan sanadan e'tiboran 1 oydan ko'p bo'lmagan muddatda Qo'mitaning yangi a'zosi saylovini o'tkazadi. Ushbu paytgacha o'z vakolatlaridan voz kechishni rejalashtirayotgan Qo'mita a'zosi o'z vazifalarini to'liq hajmda bajarishni davom ettiradi.

4.10. Qo'mita ishiga maslahat ovozi berish huquqi bilan Kuzatuv kengashi huzuridagi boshqa Qo'mitalar a'zolari va boshqa tashqi mutaxassislar (ekspertlar) jalb etilishi mumkin.

V. HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Qo'mitaga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlar beriladi:

Kuzatuv kengashi, Jamiyat Ijroiya organi, Ichki audit xizmati xodimlaridan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun kerakli axborotni talab qilish va olish;

Jamiyatning ta'sis, hisob, hisobot, tashkiliy-boshqaruv va boshqa hujjatlari, shu jumladan Qo'mita vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha maxfiy xususiyatga ega hujjatlar bilan tanishib chiqish;

Kuzatuv kengashining o'z faoliyati masalalari bo'yicha qarorlari va topshiriqlari ijrosi nazoratini amalga oshirish va ular ijrosiga doir tekshiruvlarda ishtirok qilish;

Ichki audit xizmati va tashqi auditorlardan muntazam va maxsus auditorlik chora-tadbirlarini talab qilish, zarur hollarda, shu jumladan mustaqil ekspertlar va konsultantlarni jalb qilgan holda, maxsus tekshiruvlarni belgilash va o'tkazish;

tekshiruv natijalari asosida Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlaridan yuzaga keladigan masalalar bo'yicha izohlar olish;

Kuzatuv kengashiga, zarur hollarda, o'z faoliyati doirasida malakali xizmatlardan foydalanish uchun tashqi ekspertlar va konsultantlarni jalb qilish;

zarur hollarda, Qo'mita yig'ilishlariga Jamiyat Ijroiya organi a'zolarini va Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslarini taklif qilish, bunda, taklif qilingan shaxslar Qo'mita yig'ilishi kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydilar;

Qo'mita tomonidan unga yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirish uchun kerakli boshqa huquqlardan foydalanish.

5.2. Qo'mita a'zolari Qo'mita yig'ilishi chaqirilishini yozma shaklda talab qilishga, Qo'mita yig'ilishi kun tartibi masalalari bo'yicha takliflar kiritish, muhokama qilish va ovoz berishga, o'z fikrini, shuningdek Qo'mita qarorlariga noroziligini yozma shaklda ifodalashga va uni Qo'mita raisiga ma'lum qilishga haqli.

5.3. Qo'mita quyidagi majburiyatlarga ega:

Qo'mitaga yuklatilgan vazifalarni mazkur Nizomga, qonun hujjatlari talablariga, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

Kuzatuv kengashiga Qo'mita vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha iqtisodiy asoslangan tavsiyalar va takliflarni taqdim qilish;

Kuzatuv kengashini Jamiyat moyil bo'lgan xavflar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;

maxfiylik talablariga rioya qilish, Jamiyat to'g'risida tijorat sirini o'z ichiga olgan axborotni, shuningdek Jamiyat xodimlarining shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik;

o'z vakolatlari doirasida va mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa vazifalarni bajarish;

qarorlar qabul qilishda Jamiyat aksiyadorlari va barcha manfaatdor shaxslar manfaatlarida, korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlari tavsiyalari va korporativ xatti-harakatning eng yaxshi amaliyoti hisobga olingan holda vijdonan va oqilona harakat qilish.

5.4. Qo'mita a'zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

Qo'mita ishida qatnashish va uning yig'ilishlarida ishtirok qilish;

Qo'mita ishiga Qo'mita a'zosi vazifalarini samarali bajarish uchun kerakli vaqt ajratish, shu jumladan yig'ilishlarni tayyorlash va ularda ishtirok qilish masalasida;

yig'ilish kun tartibidagi muhokama qilinadigan masala bo'yicha ularda manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan holatda, bu haqda Qo'mitaning boshqa a'zolariga ma'lum qilish;

Jamiyatdagi o'z mavqeidan uchinchi shaxslar manfaatlarida foydalanishdan saqlanish, shuningdek Jamiyat manfaatlarida harakat qilish, Jamiyatga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirish va vazifalarini bajarishda vijdonan va oqilona yondashish, shuningdek Qo'mita a'zolari manfaatlari va Jamiyat manfaatlari o'rtasida nizo paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan saqlanish;

Jamiyat faoliyati to'g'risida ularga ma'lum bo'lgan axborotdan ushbu axborot uchinchi shaxslarga tushgan holatda Jamiyatga va uning amaliy obro'siga jiddiy ravishda ta'sir etishi mumkin bo'lgan tarzda foydalanmaslik va ularni uchinchi shaxslarga bermaslik;

Kuzatuv kengashiga Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosi o'z maqomidagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida yoki Qo'mita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar tufayli manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi to'g'risida o'z vaqtida ma'lum qilish;

o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom, mazkur Nizomda belgilangan talablarga rioya qilish.

5.5. Qo'mita a'zolari o'zlariga yuklatilgan vazifalarning vijdonan bajarilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom va mazkur Nizomda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

5.6. Qo'mita har yili mazkur Nizomning belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan tahlil va baholash asosida Kuzatuv kengashiga mazkur Nizomga Qo'mitaning maqsadiga muvofiq deb hisoblagan o'zgartishlar kiritish bo'yicha tegishli tavsiyalar berishi kerak.

VI. QO'MITA ISHINI TASHKILLASHTIRISH

6.1. Qo'mita o'z faoliyatini mazkur Nizom va Qo'mitaning yillik ish rejasi asosida amalga oshiradi.

6.2. Qo'mitaga Qo'mita raisi rahbarlik qiladi, u Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishlarida va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari oldida Qo'mita vakili bo'ladi, shuningdek Qo'mita nomidan hujjatlarni imzolaydi. Qo'mita raisi Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi hamda Qo'mita faoliyat natijalari va uning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

6.3. Qo'mita raisi:

Qo'mitaning ish rejasi ishlab chiqilishini tashkillashtiradi va uni Qo'mitaga tasdiqlash uchun kiritadi;

Qo'mita yig'ilishi ishini tashkillashtiradi va yig'ilishni chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Qo'mita yig'ilishlarini o'tkazish shaklini, sanasini va kun tartibini belgilaydi;

yig'ilishni o'tkazish to'g'risida bildirish xatini imzolaydi;

Qo'mita yig'ilishlarida ishtirok etish uchun taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini belgilaydi;

Qo'mita yig'ilishlarida masalalar muhokama qilinishini, shuningdek taklif etilgan shaxslar fikrlari tinglanishini tashkillashtiradi;

Qo'mita yig'ilishi bayonnomasi yuritilishini tashkillashtiradi;

Qo'mita a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Qo'mitaning ish natijalarini ma'lum qiladi va Kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi;

Qo'mita a'zolariga Qo'mita yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun masalalarning chuqurlashtirilgan o'rganilishi va materiallar tayyorlanishi bilan bog'liq topshiriqlar beradi;

Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi nazorat qilinishini amalga oshiradi;

Qo'mita tomonidan qarorlar qabul qilinishi uchun kerakli maksimal darajada to'liq va asosli axborot olish, shuningdek Kuzatuv kengashi bilan samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash maqsadida Jamiyat Ijroiya organi, Kuzatuv kengashi, tashqi auditor va Jamiyat xodimlari bilan doimiy aloqalarni ta'minlaydi;

Qo'mita vakolatlari doirasida amaldagi qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi, mazkur Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

6.4. Qo'mita kotibi vazifalarini Kuzatuv kengashining Korporativ kotibi (bundan buyon matnda – "Kotib") bajaradi, u Kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi. Kotib o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

Qo'mita raisi va a'zolari takliflari asosida Qo'mitaning ish rejasini tayyorlaydi;

kelgusi yig'ilishlar to'g'risida bildirish xatlarini tayyorlaydi hamda ularni va ma'ruzachilardan olingan kun tartibi masalalariga doir materiallarni Qo'mita a'zolariga yuboradi;

Qo'mita yig'ilishi bayonnomasini tayyorlaydi va imzolaydi;
Qo'mitalar yig'ilishlari bayonnomalari va materiallari saqlanishini tashkillashtiradi;
zarur hollarda, manfaatdor shaxslarning talablariga asosan bayonnomalardan ko'chirmalarni tayyorlaydi;

Qo'mita raisi topshiriqlarini bajaradi.

6.5. Qo'mita ishi reja asosida tashkil etiladi. Masalalar muhokamasi va qarorlar qabul qilinishi Qo'mita yig'ilishlarida amalga oshiriladi. Qo'mita yig'ilishlari muntazam asosda, biroq kamida yilning har choragida bir marta o'tkaziladi. Qo'mita yig'ilishlarini chaqirish to'g'risida qaror Qo'mita raisining shaxsiy tashabbusiga asosan yoki Qo'mita a'zolari, Jamiyat Ijroiya organi, Kuzatuv kengashi, tashqi auditor, Jamiyat ichki audit xizmati rahbarining takliflari asosida Qo'mita raisi tomonidan qabul qilinadi.

6.6. Yig'ilish kun tartibi Qo'mita raisi tomonidan belgilanadi. Bunda, Qo'mitaning istalgan a'zosiga kun tartibiga kiritish uchun o'z masalalarini taklif etish imkoniyati taqdim qilinishi kerak. Qo'mita a'zolarining qaroriga asosan yig'ilish kun tartibi o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin. Zarur hollarda, Qo'mita joriy yig'ilish kun tartibida belgilangan masalalar muhokama qilinishi boshqa masalalar foydasiga rad qilishi mumkin.

6.7. Kuzatuv kengashi, Jamiyat Ijroiya organi, Jamiyat tashqi auditori, shuningdek Qo'mita ishiga jalb qilingan ekspertlar Qo'mita raisiga yoki Qo'mitaning istalgan a'zosiga Qo'mita vakolatiga tegishli har qanday masalani ko'rib chiqish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

6.8. Qo'mitaning bo'lajak yig'ilishi to'g'risida bildirish hamda Qo'mita a'zolariga va taklif etilgan shaxslarga kerakli materiallarning yuborilishi oqilona muddatda yig'ilishdan oldin, Qo'mita a'zolari bilan kelishilgan usulda amalga oshiriladi. Qo'mita raisi xabardor qilish va materiallarni yuborish tegishli ravishda va tegishli muddatlarda amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish uchun kerakli choralar ko'radi.

6.9. Qo'mita a'zolari Qo'mita yig'ilishlarida, shu jumladan, Qo'mita a'zosiga yig'ilish jarayonida o'z fikrini operativ bildirish va muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish imkoniyatini yaratadigan texnik aloqa vositalari (telefon, video-telefon, konferens-aloqa va h.k.) yordamida, shuningdek qaror loyihasi bilan oldindan tanishib chiqqan kun tartibidagi masala bo'yicha o'z istagini yozma shaklda bildirish orqali ishtirok qilishga haqli. Qo'mita qarori sirtqi ovoz berish (so'rovnom) orqali qabul qilinishi mumkin.

6.10. Qo'mita tomonidan qaror qabul qilinishi uchun kворum Qo'mita a'zolari sonining kamida uchdan ikki qismini tashkil etadi. Barcha qarorlar Qo'mita a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan Qo'mita a'zosi yig'ilish bayonnomasiga alohida fikrini kiritishga haqli. Qaror qabul qilinishida Qo'mita a'zolari ovozlari teng bo'lgan holatda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

6.11. Qo'mita yig'ilishlariga Jamiyatning mansabdor shaxslari, Jamiyat ichki audit xizmati rahbari hisobot va izohlar berish uchun taklif qilinishi mumkin. Taklif qilingan shaxslar quyidagilarga haqli:

Qo'mita yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha ular uchun oldindan belgilangan masalalarga muvofiq so'zga chiqish;

Qo'mita a'zolari iltimosiga ko'ra, muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha izohlar berish.

Taklif qilingan shaxslar Qo'mita yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berishda ishtirok qilishga haqli emas.

6.12. Qo'mita yig'ilishi natijalari bo'yicha Kotib yig'ilish bayonnomasini tuzadi. Qo'mita yig'ilishi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

yig'ilish o'tkaziladigan sana, joyi va vaqti;

yig'ilish ishtirokchilari, shu jumladan Qo'mita a'zolari va taklif etilgan shaxslar tarkibi;

yig'ilish kun tartibi;

ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish jarayonida bildirilgan takliflar va fikr-mulohazalar;

ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari hamda qabul qilingan qarorlar va tavsiyalar.

Bayonnomaga Qo'mita tomonidan tayyorlangan materiallar, xulosalar, takliflar va tavsiyalar, shuningdek Qo'mita a'zosining alohida fikri (mavjud bo'lgan holatda) ilova qilinadi.

6.13. Bayonnoma yig'ilish o'tkazilgan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kuni mobaynida tuziladi va Qo'mitaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

6.14. Qo'mitaning barcha a'zolari va tayinlangan ijrochilar yig'ilish bayonnomasi nusxalarini (bayonnomadan ko'chirmalarni) Qo'mita yig'ilishi o'tkazilganidan so'ng 5 (besh) kundan kechiktirilmay oladilar.

6.15. Qo'mita bayonnomalari Kotibda saqlanadi.

VII. QO'MITA A'ZOLARIGA HAQ TO'LASH

7.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan Kuzatuv kengashi a'zolariga ular tomonidan o'z vazifalarini bajarish davrida belgilangan va qo'shimcha haq to'lanadi, shuningdek ular tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolari vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar kompensatsiya qilinadi.

7.2. Qo'shimcha haq Kuzatuv kengashi a'zolariga qo'mitalardagi ishlar, qo'mitalardagi raislik va Kuzatuv kengashi raisi o'rinbosari vazifalarini bajarish bilan bog'liq ishlar uchun to'lanadi.

7.3. Qo'mita raisining tavsiyasiga asosan Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan aksiyadorlar byudjeti doirasida "Jamiyat Kuzatuv kengashi faoliyatini baholash to'g'risida"gi Nizomga asosan yil uchun ish natijalari bo'yicha Qo'mita a'zolarini mukofotlash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

VIII. QO'MITANING KUZATUV KENGASHIGA HISOBDORLIGI

8.1. Qo'mita Jamiyatdagi moliyaviy holatga yoki ishlar holatiga jiddiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan masalalarda Kuzatuv kengashining tegishli xabardorlik darajasini ta'minlashi kerak.

8.2. Qo'mita Kuzatuv kengashiga Qo'mitaning faoliyati to'g'risida Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan shaklda hisobotlarni kamida yilning har choragida bir marta taqdim qilish orqali Kuzatuv kengashini o'z faoliyati to'g'risida xabardor qilishi shart.

8.3. Qo'mita Kuzatuv kengashiga Qo'mita tomonidan o'z oldidagi belgilangan vazifalar bajarilishi to'g'risida yillik hisobotni taqdim qiladi.

IX. QO'MITANING IJROIYA ORGANLARI VA BOSHQA SHAXSLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATI

9.1. Qo'mita tomonidan o'z vazifalarining samarali bajarilishini ta'minlash uchun Qo'mita a'zolari barcha kerakli axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Kuzatuv kengashi, Jamiyat Ijroiya organi, shuningdek Jamiyat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va Jamiyat xodimlari Qo'mita qaroriga asosan, u tomonidan belgilangan muddatlarda Qo'mita faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha to'liq va asosli axborot va hujjatlarni taqdim qilishlari shart.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

10.2. Mazkur Nizomga barcha o'zgartishlar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak, bu haqda Kuzatuv kengashi yig'ilishining tegishli bayonnomasi tuzilishi kerak.